

**ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA O’QUVCHILARNING MUSTAQIL
BILIM OLIISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI
INNOVATSIYASI**

Niyozova Shahnoza Farxod qizi

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 322-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Sh.Donayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogikada o’quvchilarning mustaqil bilim olish ko’nikmalarini rivojlantirishda qo’llaniladigan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek maqolada o’quvchilarga motivatsiya berish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi usullar qo’llashning ahamiyati takidlanadi. Pedagogik innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va metodlarning o’quvchilarga mustaqil bilim olish ko’nikmalarini rivojlantirishdagi roli alohida yoritiladi.

Kalit so’zi: Mustaqil bilim olish, innovatsion pedagogika, zamonaviy ta’lim, o’quvchilarning o’z-o’zini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalar, talimda texnologiyalar, o’quvchilarni motivatsiyalash.

Zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchilarning, faqatgina shunchaki o’qish jarayoni emas, balki o’z bilimlarni, izlanishlarini, hamda o’zi ustida mustaqil ishlay olish ko’nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa talim jarayonining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Pedagogikaning innovatsion usullari va texnologiyalarning ta’limda qo’llanishi o’quvchilarga mustaqil fikrlash va o’z-o’zini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Mustaqil ta’lim olishda o’quvchilar o’zlarini ta’lim jarayoni faolligi sifatida ko’rsatish, o’z ilmiy izlanishlarini olib borishi va amaliyotda tadbiiq etishlari lozim. Bugungi kunda ta’limda o’quvchilar uchun faqatgina an’anaviy darslarga asoslanish emas, balki zamonaviy texnologiyalarni, internet resurslarini va boshqa o’quv vositalarini samarali tarzda ishlatish hamda o’rganishni talab etadi. Jaxon bo’yicha ko’plab mamlakatlarda ta’lim tizimida mustaqil bilim olishni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Shulardan Xitoy va Janubiy Korrada ham ta’limda texnologiyalarning keng qo’llanishi, o’quvchilarga mustaqil izlanishlarga imkon yaratish amaliyotlari joriy etiigan. Pedagogik innovatsiyalar o’quvchilarni samarali ta’lim olishga undash va ta’lim jarayonini yaxshilash uchun qo’llaniladi. Bu esa zamonaviy prdagogikada yangilanish va kreativ fikrlash tushunchasini hamda ijodkorlik yondashuvlarini shakllanishida namayon bo’ladi. Pedagogika tarbiya haqidagi fan hisoblanadi. “Pedagogika”-grekcha so’z bo’lib, “Bola yetaklamoq” degan ma’noni anglatadi. Insonning ma’rifiy va ma’naviy barkamollikka munosabatlari o’zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to’g’ri yo’lga solish

san’ati) fani xalq orasida o’z mavqeyiga ega bo’ladi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyo fanlari tizimi qatoridan alohida o’rin egallaydi. “Innovatsiyalar” atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga Avstriyalik (keyinchalik Amirikalik) olim Yozef Shumpeter 20-asrning birinchi o’n yilligida kiritilgan. O’zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli asarida (1911) Y. Shumpeter ilk bora rivojlanishda o’zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (yangi innovatsiya masalalarini) ko’rib chiqadi va innovatsion jarayonga to’lliqlik tavsiya beradi. Innovatsiya (inglizcha. innovation - kiritilgan yangilik, ixtiro) - fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan hamda qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni taminlaydigan yangi ishlanma hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri sifatida e’tirof etiluvchi “innovatsion ta’lim” asoslari dastlab 1979-yilda mustaqil tushuncha sifatida ilk bor asoslangan. Pedagogik innovatsion ta’limni tashkil etishda qaratilgan faoliyati “innovatsion faoliyat deb yuritiladi. V. Slastyoninning fikriga ko’ra innovatsion faoliyat muayyan tarkibiy elementlardan tarkib topadi. Ular: innovatsion yondashuv, yangicha fikrlash, ijodiy faollik, muomala madaniyati, yangilikni kiritishga texnologik kabilar. Innovatsiya iqtisodiy toifa sifatida yangiliklar yaratish va amalga oshirishning eng umumiy xususiyatlari, belgilari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Yangi g’oya izlab topishning asosiy usullari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sinov va xatolar.
- nazorat savollari usuli.
- aqliy hujm.
- sintetika.
- yetti karra izlash strategiyasi.
- ixtirochilik masalalarini hal qilish usuli.

Yangi ayniqsa ilmiy bilimlar eng ishonchli va oldindan aytish mumkin bo’lgan manba hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o’qitish nazariyasi va amaliyoti sohasida yangi tadqiqotlar olib borishga hamda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog’liq o’qitish va tarbiyalashning innovatsion usullarini izlashga olib keladi. Talabalar o’rtasidagi bilimlarni izlash, o’zlashtirish jarayoni va real hayotga yaqin bo’lishi uchun ularda bilimga bo’lgan talab, o’quvchilarning chet tilini o’rganishdagi kognitiv va kommunikativ faolligini oshiradi. Chet tilini o’qitish metodikasida ta’lim texnologiyalarini til o’qitish maqsadida chet tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni taminlaydigan o’quv jarayoni subyektlarining o’zaro bog’liq faoliyati majmui sifatida qarash kerak.

“Texnologiya” atamasi (yunoncha “san’at ilmi” techne - “sanat”, “mahorat” degan manoni anglatadi; logotiplar – “so’z”, “ta’limdir. Texnologiya tushunchasi pedagogika uslubiy va psixologik adabiyotlarga kompyuter texnikasining rivojlanishi hamda yangi kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga kirib kelganligi hamma

tomonidan qabul qilingan .Shunday qilib, bazi metodistlar o'qitish texnologiyasining innovatsion rolini tan olib, innovatsiyalar faqat yangi texnologiyalardan foydalanishni va uning samaradorligini oshirish uchun o'quv amaliyotini qayta tashkil etishni o'zida mujassam etgan yangiliklarni o'z ichiga oladi.

Talim jarayonida tobora faol qo'llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo'l keladi. Bugungi kunda ta'limda radio eshittirish, teleko'rsatuvlar, filimlarni namoyish imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o'qitish sifatini yaxshilaydi, shaxsning kreativ sifatlari, kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari orasida kompyuterlarning alohida o'rnini bor. Zamonaviy o'qitishda kompyuter texnologiyasi pedagoglar uchun eng yaqin yordamchi bo'lmoqda.

Istiqlol mafkurasining asosiy pedagogic g'oyalaridan biri bu komil inson g'oyasidir. Bu tushunchaga to'xtalishimizdan avval biz komil inson tushunchasining mazmunini va mohiyatini anglab yetmog'imiz darkor. Bu borada birinchi Prezidentimiz I. Karimov takidlaganlaridek, diplomga ega bo'lish – bu hali tom ma'nodagi komil, ziyoli odam degani emas. Komil, ziyoli odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha inson bo'ladi. Shunday ekan, komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay olgan ya'ni oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, marifatli kishilarni tushunamiz. Bunday sifatlarga ega bo'lgan odamlar har narsani aqi, mantiq tarozisiga solib ko'rib, o'z fikrini, o'yini, xulosasini mantiq asosida quradi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar o'quvchilarga bilim olish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa: Zamonaviy pedagogikada o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion usullar va texnologiyalarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Ta'lim asosidagi yondashuvlar o'quvchilarga mustaqil fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va o'quvchilarga samarali ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning kelajagini belgilovchi ta'lim jarayonida tobora faol qo'llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri axborot texnologiyalari hisoblanadi. Bu texnologiyalar zamonaviy pedagoglar uchun eng yaqin yordamchi omil hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. Z. Karabayevna. Pedagogika fanlar doktori. Pedagogika, 2007
2. X.M.Abdusattarova. Innovatsion strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi. Toshkent -2012.
3. K. B. Ergasheva. Kreativ pedagogika. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti). Toshkent-2023.